

“O‘zbekistonda Yadro tadqiqotlari birlashgan instituti kunlari” yakunlandi

Bugun, 25-aprel kuni O‘zbekiston Fanlar akademiyasida Yadro tadqiqotlari birlashgan instituti direktori, Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi G.Trubnikov tashrif buyurdi. Mehmonlarni FA prezidenti, akademik Sh.Ayupov, vitse-prezident S.Mirzayev hamda Yadro fizikasi instituti direktori I.Sodiqov kutib oldi.



Uchrashuvda “O‘zbekistonda Yadro tadqiqotlari birlashgan instituti kunlari” yakunlari, kelgusidagi istiqbolli rejalar muhokama qilindi.